

## “BOLA OBRAZINING HIKOYALARDAGI VAZIFALARI HAQIDA”

**Odilova Raxima Xoshimjon qizi**

ToshDO‘TAU Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti) mutaxassisligi 2-kurs magistranti

[rohilaodilova78@gmail.com](mailto:rohilaodilova78@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqola hikoyada bola obrazining ma’lum bir vazifalari haqida ma’lumot beradi. Bolalarga xos xususiyatlar ularning hikoyadagi vazifalarida ham aks etishi, shuningdek, obrazlarining hikoyalardagi tasvirlari bilan qiyosiy tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** bola obrazi, bolalik, xotira, xususiyat, xarakter, hikoyachi, roviy obraz.

**Abstract.** This article provides information about certain tasks of the child character in the story. Children's characteristics are reflected in their tasks in the story, as well as compared with the images of their characters in the stories.

**Keywords:** image, childhood, memory, uniqueness, character, narrator,

«Tasvirlanayotgan voqealarning yuz berish vaqti qisqaligi bois hikoyaning hajmi kichik, syujeti sodda, personajlari kam bo‘lishini taqozo etadi. Hikoyanavisning mahorati eng avval hikoyabop voqeani tanlay olishi bilan belgilanadi. Har qanday voqea ham hikoyabop emas, ijtimoiy-estetik qimmatga molik voqeani tanlay bilish lozim. Chunki hikoyada xarakterning ayrim chizgilarigina namoyon bo‘ladi, shu bois voqeaning o‘zi ahamiyatli mazmun- mohiyatni namoyon etish uchun yaroqli bo‘lishi lozim».<sup>1</sup> Hikoya janri o‘zidan katta janrlarga (qissa, roman) nisbatan tasviriy imkoniyati kamroq bo‘lsa ham, uning yutug‘i bir kichik epizod orqali katta muammolarni qisqa shaklda bayon qila olishidadir. Bola obrazi qatnashgan asarlarda personaj nutqi sodda bo‘lib uni bolalar ham, kattalar ham tezda “hazm” qiladilar (bolaligini unutib qo‘ygan obrazlar bo‘lmasa albatta). Bola obrazi qisqagina epizodik ishtiroki bilan ham butun bir fojiani yoritib berishi mumkin (yosh bolaning jinoyat olamiga kirib qolishi, yetim qolishi, nuqsonli bo‘lishi, majburiy mehnatlarga jalb qilinishi va boshqa ko‘plab jarayonlar ichida bo‘lishini nazarda tutildi) va bu vazifani bajarishda ko‘p ham emotsional bo‘yoqlar talab etmaydi. Bu kabi beg‘ubor bola obrazi ham beg‘uborlikni tabiatida saqlab qoladi. Ijodkor asarida bola obrazini tasvirlashda ham, biror hodisaga guvoh sifatida kiritishi, obrazga ma’lum bir vazifani yuklashi mumkin. Har bir obraz o‘zining shaxsiy xususiyatidan kelib chiqib, xususiyligini yo‘qotmagan holda muallif badiiy niyatiga hamohang tarzda qayta ishlanadi. Bola

<sup>1</sup> D.Quronov “Adabiyot nazariyasi asoslari” Toshkent. «Navoiy universiteti» 2018. (376-b).

obrazlari ham bolalarga xos xislatlari bilan asarlarda ma'lum bir funksiyani bajaradilar. Yuqorida uning nutqi hammaga tushunarli ekani haqida aytili, ammo bundan tashqari boshqa vazifalarda ham ishtiroki mavjud. Bola bilan bog'liq eng qayg'uli yoki eng qiziqarli sarguzasht bo'lsin har kitobxon o'qiganida ta'sirchanlik uyg'onmasligi mumkin emas. Bu esa bolaning obrazini yaratishda muallif xarakteristikasi, portret, badiiy psixologizm, personaj nutqi kabi unsurlarda soddaroq tasvir usulini talab etadi. Ushbu unsurlarning barchasi har qanday obraz strukturasi tashkil etadi. Bu esa, uning soddagina nutqining haqqoniyligiga asarning boshqa qahramonlarini ham, kitobxonni ham ishoniradi.

Bolalar rostgo'y, ya'ni ushbu obraz orqali nosir asardagi aytilishi kerak jumlaning uning tilidan bayon etishda foydalanishi mumkin. Bu ishonarli axborot sanaladi. Nega? Sababi, berilayotgan ma'lumotlarda shaxsiy fikrlarsiz yetkazuvchi obraz sanaladi (fitnachilik bolalarga xos emas, shu sabab nutqi shaffofdir). Misol tariqasida "hurkitilgan tush" hikoyasiga qaraymiz:

"Bir kuni oramizga yangi mehmon - Halima degan qizcha qo'shildi. Uning qishlog'imizga kelganini hammadan avval men bildim. Kechqurun oyim dadamga aytgan gapini eshitib qolgandim.

-Hakim sassiq shaharga borib qizini topib kelibdi. Xotining boshiga itti kunini solibdi. «O'zing-ku, sharmandalik qilding... Mayli, sen o'sha topganing bilan bo'laver. Menga qizimni ber», debdi...»<sup>2</sup>. Gaplarni tushunar- tushunmas Anvarning bolalik hikoyasi edi bu. Ko'p hollarda bola obrazini hikoyalarda roviy sifatida ham tasvirlashadi.

Bola obrazini yaratishda ham portret muhim omillardan sanaladi. Chunki bu ham asarga voqea jihatidan muhim ma'lumotlarni qo'shadi. "Sonya degan olti yoshli ikkinchi singlisi esa lotoga qiziqib o'ynaydi, uning yuzi faqat sog'lom bolalarda, qimmatbaho qo'g'irchoqlarda va chiroyli suratlardagi kabi shirmoyday" va "Lotobozlarning beshinchisi — oshpaz xotinning chit ko'ylak kiyib, ko'kragiga mis krest osib olgan qoramag'iz, ranggi zahil o'g'li Andrey"<sup>3</sup> tasvirlari bolalarning ijtimoiy holatidan darak beradi. Bolalarga xos umumiylik bu – ularning tabaqalashtirmay birgalikda o'yin o'ynashlari bo'lsa, muallif xarakteristikasi ijtimoiy, maishiy yoki boshqa sabablarga ko'ra ularni farqlab turadi.

Muallif obrazni ruhiyatini yoritishda ikki asosiy unsurga tayanadi: ular ichki yoki tashqi. Ichki unsurga ko'ra tasvirlangan personaj o'zining va tashqi olamning sifatlarini o'zicha tahlil qilganida ko'rinsa, tashqi omil atrofidagi insonlarning mazkur obraz haqidagi fikrlarini kompleks tarzda namoyish etadi. Uchinchi unsur ham borki hikoyada batafsil qo'llanilmasligi mumkin, ya'ni bunda muallif o'zi e'tiborni qaratgan

<sup>2</sup> Hoshimov O'. "O'zbeklar". G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent. 2018 (28-bet)

<sup>3</sup> Chexov A. "Yosh bolalar" hikoyasi. <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/anton-chexov/anton-chexov-yosh-bolalar-hikoya/>

obrazining hissiy portretini (“Halimaning labi pirpirab, yig'lab yuboray deytganidan bu yomon gap ekanligini tushundim”<sup>4</sup>, “Hurkitilgan tush” hikoyasidan olindi) namoyish etish (izohlash) orqali uning fe’li va ruhiyatidan ham ma’lumot berishi mumkin.

Bola obrazi qatnashgan asarlarni ham shartli ravishda ikki turga ajratish mumkin: birinchisi, bevosita asarning bosh qahramoni bola obrazi bo‘lgan. Har ikkisi obraz, ammo vazifasiga ko‘ra bir – biridan farq qiladi. Bu turga asosan, bolalar adabiyoti vakillarining asarlari kiradi. Unda bosh qahramon bola va voqealar rivoji ham bola obrazi atrofida kechadi. Asar tili, bayon uslubi, obrazlar rang – barangligi, ijodiy tasvir ham to‘laligicha bolalarga moslashtiriladi. Bu kabi adabiyot namunalari asosan xronikal syujetdan foydalanadi. Bolalar adabiyotining yirik namoyondalari X. To‘xtaboyev (“Sariq devni minib”, “Sariq devni o‘limi”, “Besh bolali yigitcha” va boshqa asarlari), A. Obidjon (“Berkinib olgan sirg‘acha”, “Boymamat beshinchi”, “Jaqqi”, “Qo‘g‘irchoqlar” hikoyalari) yoki bolalar adabiyotiga namuna bo‘luvchi asarlari bor bo‘lgan boshqa adiblar (Oybek “Fanorchi ota”, “Gulnor opa”, O‘.Hoshimov “Jintepa”, Sh. Xolmirzayev “Olma yemadim” hikoyalari) asarlari ham misol bo‘la oladi. Oybekning “Fanorchi ota” hikoyasida roviy fanorning yorug‘ida yurganda yoshligining bir parchasini va Fanorchi otanigina xotirlashini aytib beradi. Hikoya realistik ammo bolalar uchun yozilganligi yaqqol sezilib turadi. Oybekning bu hikoyasi A.Rasulovning ayni ta’rifidek: “Bolalar adabiyoti pand-nasihat, ta’lim-tarbiyaga oid ma’rifiy asarlar bilan uzviy bog‘lanib ketadi”<sup>5</sup>.

Ikkinchisi, asarda bilvosita bola obrazi epizodik obraz sifatida qatnashgan asarlar. Bunda bola obrazi asosiy bo‘lmagan (ikkinchi darajali) yoki asar tarkibida kichik bir epizodni tashkil qiladi. Bunday asarlar turi ham keng tarqalgan bo‘lib, unda bola obrazi kalit vazifasini bajarishi kuzatiladi. A. Qahhor “Bemor”, “O‘jar”, O. Yoqubovning “Muzqaymoq”, “Yaxshilik”, O‘. Hoshimov “Hotam-hasisning xazinasini”, “Hurkitilgan tush”, N. Norqobilov “Ayriliq quvonchi”, N. Aminov “Tug‘ilgan kunim qani?”, Sh. Xolmirzayev “Farzand” hikoyalari shular jumlasidandir.

“Qo‘shni xonada hamon uning tug‘ilgan kuni nishonlanar, mehmonlarning biri otasini maqtasa, ikkinchisi onasini maqtardi. Ahyon-ahyonda u uyqu aralash o‘z nomini eshitganda:

— Tug‘iygan kunimmi bey... bey! — deya g‘ingshib qo‘yar, chamasi allaqanday qo‘rqinchli, mavhum tushlar ko‘rardi”<sup>6</sup>. Bu hikoyada ham bola obrazi mavjud bo‘lib, unda bolaning tug‘ilgan kuni nishonlanish jarayonlarini hikoyaning so‘nggi satridan

<sup>4</sup> O‘. Hoshimov “O‘zbeklar”. Toshkent. G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018. (29-b)

<sup>5</sup> Abdug‘afur Rasulov. “G‘aroyib saltanat” maqolasidan. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/abdugafur-rasulov-garoyib-saltanat/>

<sup>6</sup> Ne‘mat Aminov. Tug‘ilgan kunim qani? (hikoya). <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/ne-mat-aminov-1937-2005/ne-mat-aminov-tug-ilgan-kunim-qani-hikoya>

ham bilsa bo‘ladiki bu yerda bola obrazi kattalar harakatlarining ko‘zgusi sifatida namoyon bo‘lgan. Ularning xarakterini, yozuvchi o‘z ijodiy niyatini obrazi orqali fosh etadi. Bola obrazi syujetni harakatlantiruvchi asosiy obraz bo‘lib xizmat qilgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hoshimov O‘. O‘zbeklar. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018
2. Quronov D. Adabiyot nazaryasi asoslari. Toshkent.Navoiy universiteti. 2018
3. Chexov A. “Yosh bolalar” hikoyasi. <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/anton-chexov/anton-chexov-yosh-bolalar-hikoya/>
4. Abdug‘afur Rasulov. “G‘aroyib saltanat” maqolasidan. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/abdugafur-rasulov-garoyib-saltanat/>
5. Ne‘mat Aminov. Tug‘ilgan kunim qani? (hikoya). <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/ne-mat-aminov-1937-2005/ne-mat-aminov-tug-ilgan-kunim-qani-hikoya>